Zanjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Ma’ruza materiallari.

1-ma’ruza.

Algebra va geometriya faniga kirish. 2-,3-,n- tartibli determinantlar va ularning xossalari

Reja:

1.1. Ikkinchi, uchinchi va yuqori tartibli determinantlarning ta’riflari.
1.2. Determinantlarning asosiy xossalari.
1.3. Determinantni satr yoki ustun elementlari bo’yicha yoyish.

Tayanch iboralar: determinant, periutasiya, inversiya, tranpozisiya, satr, ustun, minor, algebraik to’ldiruvchi.

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy maqsadi: talabalarda ikkinchi, uchinchi va yuqori tartibli determinantlarning ta’riflari, determinantlarning asosiy xossalar haqida bilimlarni amaliy masalalarga qo’llash ko’nikmasini hosil qilish.

Rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarning izlanuvchanlik faoliyatini rag’batlantirish, muammoli topshiriqlarga mulohazali javoblar berish ko’nikmalarini hosil qilish hamda ularda natijalarni umumlashtirish mantiqiy va ijodiy qobiliyatini, muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsadi: talabalarni mustaqil fikrlash va faol mustaqil ish faoliyatiga jalb yetish, ularda o’zaro xurmat, hamkorlik fazilatlarini shakllantirish hamda fanga bo’lgan qiziqishni o’stirish.

Darsning jihozlari: Sinf doskasi, darsliklar, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruzalar kursi, tarixiy ma’lumotlar, izohli lug’atlar, atamalar, o’tilgan dars mavzusi bo’yicha savollar va muammoli topshiriqlar majmuasi, testlar, kartochkalar, shaxsiy kompyuter, lazerli proyektor.

Dars o’tish usuli: Avval o’tilgan mavzu qay darajada o’zlashtirilganligini tekshirish, o’z – o’zini tekshirish savollariga javoblar va topshiriqlarni bajarish bo’yicha munozarali jonli muloqotni amalga oshirish, talabalarni yangi mavzu bo’yicha asosiy tushuncha va natijalar haqida fikr – mulohazalarni bayon qilishga o’rgatish, savol – javob usulidan foydalanib, o’zlashtirishga erishish; tayanch iboralarga alohida izoh berish; o’tilgan mavzuni o’zlashtirish darajasini tekshirish va mustahkamlash.

Darsning borishi: Tashkiliy qism ***(7 daqiqa):*** dars xonasining sanitariya holatini kuzatish, davomat va talabalarning darsga tayyorligini tekshirish. Talabalarni o’tgan ma’ruza boshida bajargan ishlari (o’z – o’zini tekshirish savollariga javoblar va muammoli topshiriqlarni bajarish) natijalarini e’lon qilish.

Yangi dars mavzusining bayoni *(55 daqiqa):* (matn keltiriladi, matnda asosiy materialdan tashqari, avvalgi mavzularda o’rganilgan tushunchalar, tasdiqlar hamda mashhur olimlar haqida ma’lumotlarni o’zida mujassam qilgan glossariy ham keltiriladi va ma’ruzaning elektron variantida giperssilkalar yordamida ularning ekranda ko’rsatilishi ta’minlanadi).

Mavzuning asosiy mazmuni–ma’ruza muloqot uslubi vositasida talabalarga yetkaziladi.

1.1. Ikkinchi, uchinchi va yuqori tartibli determinantlarning ta’riflari

3-ta’rif. Ushbu

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}$$

belgiga *ikkinchi tartibli determinant* deyiladi.

4-ta’rif. Ushbu

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{13}a_{21}a_{32} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{11}a_{23}a_{32} - a_{12}a_{21}a_{33}$$

belgiga uchinchi tartibli determinant deyiladi.

Bu ifoda uchburchaklar qoidasi (*Sarryus qoidasi*) bo’yicha topiladi. Uni quyidagi jadvallar orqali tasvirlash mumkin bo’lib, bir xil ishora bilan bitta ko’paytmada ishtirok etuvchi elementlar kesmalar bilan birlashtirilib ko’rsatilgandir:

+ 

\- 

n tartibli determinant deb quyidagi simvol bilan belgilangan sonni ataymiz:

$$D = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & a_{2n} \\ & & \\ a_{n1} & a_{n2} & a_{nn} \end{vmatrix}$$

n tartibli determinant n ta satr, n ta ustun va n^2 ta elementga ega, bunda $a_{11}, a_{22}, a_{33}, \ldots, a_{nn}$ elementlar birinchi (bosh) diagnolni , $a_{1n}a_{2,n-1}, \ldots, a_{n1}$ elementlar ikkinchi (yordamchi) diagonalni tashkil etadi.

5-ta’rif. n - tartibli D determinant deb, n! hadlardan tuzilgan algebraik yig’indiga aytiladi.

Bunda, yig’indining har bir hadi determinantdagi n ta elementning ko’paytmasidan iborat. Agar hadlarning hammasida elementlarning birinchi nraqamlari tartib bilan (ya'ni $1, 2, 3, 4,...,n$) yozilsa, ikkinchi raqamlari $1, 2, 3, 4,...,n$ raqamlardan tuziladigan n! ta permutasiyani tashkil etadi.

I. Elementlarning ikkinchi raqamlari juft permutasiyalarni tashkil etgan hadlar o'z ishorasi bilan toq permutasiyalarni tashkil etgan hadlar esa teskari ishora bilan olinadi.

Bu ta'rifdan determinantni ifodalovchi yigindining har bir hadini

$$(-1)^r a_{1\alpha_1} \cdot a_{2\alpha_2} \cdot a_{3\alpha_3} \dots a_{n\alpha_n} \qquad (1)$$

shaklda yozish mumkinligi ko'rinadi, bunda ikkinchi $\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, ..., \alpha_n,$ nomerlar $1, 2, 3, 4,...,n$ raqamlardan tuzilgan qandaydir permutasiyani r esa, shu permutasiyadagi inversiyalarning sonini bildiradi.

Demak, r juft bo'lsa, (1) ko'paytma o'z ishorasi bilan, r toq bo'lsa, (1) ko'paytma teskari ishora bilan olinadi.

Shunday qilib, n - tartibli determinantni

$$D = \sum^{n!} (-1)^r a_{1\alpha_1} \cdot a_{2\alpha_2} \cdot a_{3\alpha_3} \dots a_{n\alpha_n} \qquad (2)$$

ko'rinishda yoza olamiz.

(2) yig'indining qo'shiluvchilarini bundan keyin, n- tartibli D determenantning hadlari deb ataymiz. Masalan, $(-1)^r a_{14}a_{21}a_{35}a_{46}a_{53}a_{62}$ dan iborat hadning qanday ishora bilan olinishini aniklaylik. Ikkinchi raqam tuzilgan 415632 permutasiyada 8 ta inversiya bor. Demak, r=8, $(-1)^8 = 1$ bo'lib, ko'paytma o'z ishorasi bilan olinadi.

Agar $a_{14} = 2, \quad a_{21} = -5, \quad a_{35} = 3, \quad a_{46} = -2, \quad a_{53} = 1, \quad a_{62} = -4$ desak, bu had 2(-5) 3 (-2) 1 (-4)= - 240 bo'ladi.

1.2. Determinantlarning asosiy xossalari

1-xossa. Determinantda hamma satrlar mos ustunlar qilib yozilsa, ya'ni transponirlanganda, determinatning qiymati o'zgarmaydi.

Isboti. Bu xossani isbot etish uchun ushbu

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{21} & a_{31} \\ a_{12} & a_{22} & a_{32} \\ a_{13} & a_{23} & a_{33} \end{vmatrix} \qquad (3)$$

tenglikning to'g'riligini ko'rsatish yetarli. Ammo (3) dagi har ikki determenantni uchburchak qoidasini qo'llanib hisoblasak. Bir xil natijaga kelamiz.

2-xossa. Determinantning biror satridagi (yoki biror ustunidagi) barcha elementlar nolga teng bo'lsa, bunday determinant nolga teng bo'ladi.

Isboti. Ushbu

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ 0 & 0 & 0 \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = 0, \quad \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & 0 \\ a_{21} & a_{22} & 0 \\ a_{31} & a_{32} & 0 \end{vmatrix} = 0.$$

har ikki determenantni uchburchak qoidasini qo'llanib hisoblasak har bir hadida nol qatnashadi. Bunday determinant nolga teng bo'ladi

3-xossa. Determinantda istalgan ikki satrni (yoki ikki ustunni) o'zaro almashtirsak, determinantning faqat ishorasi o'zgaradi.

Isboti. Bu xossaning to'g'riligiga berilgan determenantga va undan ikki satr yoki ikki ustunning o'rnini almashtirishda hosil bo'lgan determinantga uchburchak qoidasini bevosita qo'llanish bilan ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan, 1-va 3-ustunlarning o'rnini almashtirsak, Ushbu

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = - \begin{vmatrix} a_{13} & a_{12} & a_{11} \\ a_{23} & a_{22} & a_{21} \\ a_{33} & a_{32} & a_{31} \end{vmatrix}$$

tenglikka ega bo'lamiz.

4-xossa. Ikki satri (yoki ikki ustuni) teng bo'lgan, determinant nolga tengdir.

Isboti. (1) determinantning 1- va 2- satri elementlari mos ravishda bir-biriga teng bo'lsin,

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \Delta .$$

Shu determinantdagi bu satrlar o'rinlarini amlashtiramiz. U vaqtda, bir tomondan, 3- xossaga asosan determinantning qiymati o'z ishorasini o'zgartiradi. Lekin ikkinchi tomondan, o'zaro almashtirilayotgan satrlar bir xil bo'lgani uchun ularni o'zaro almashtirish determinant qiymatini o'zgartirmaydi. Demak, $\Delta = -\Delta$ tenglikka egamiz, bundan $2\Delta = 0$ yoki $\Delta = 0$ kelib chiqadi. Determinantning elementlari teng ikki ustunining o'rinlarinialmashtirishga tegishli mulohazalar ham shunga o'xshash yuritiladi.

5-xossa. Determinantning biror satridagi (yoki ustunidagi) barcha elementlarni aynan bitta songa ko'paytirilsa, u holda determinant ham shu songa ko'paytiriladi. Boshqacha aytganda, satrdagi (yoki ustundagi) barcha elementlarning umumiy ko'paytuvchisini determinant belgisi ostidan chiqarish mumkin.

Isboti. Dyeterminintning, masalan, birinchi satri elementlari uning uchinchi satri elementlari bilan proporsional, ya'ni $a_{11} = ma_{31}, a_{12} = ma_{32}, a_{13} = ma_{33}$ munosabatlar o'rinli bo'lsin deylik. Bu munosabatlardan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} ma_{31} & ma_{32} & ma_{33} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = m \begin{vmatrix} a_{31} & a_{32} & a_{33} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix}.$$

Oxirgi determinantning birinchi va uchinchi satrlari elementlari bir hil bo'lgani uchun 4-xossaga ko'ra uning qiymati nolga teng.

6-xossa. Biror satridagi barcha elementlari boshqa bir satrining mos elementlariga proporsional bo'lgan determinant nolga tengdir. Xuddi shunday ustunlar uchun ham o'rinli.

Isboti. (3) determinintning, masalan, birinchi satri elementlari uning uchinchi satri elementlari bilan proporsional, ya'ni $a_{11} = ma_{31}, a_{12} = ma_{32}, a_{13} = ma_{33}$ munosabatlar o'rinli bo'lsin deylik. Bu munosabatlardan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} ma_{31} & ma_{32} & ma_{33} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = m \begin{vmatrix} a_{31} & a_{32} & a_{33} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = m \cdot 0 = 0.$$

Oxirgi determinantning birinchi va uchinchi satrlari elementlari bir hil bo'lgani uchun 4-xossaga ko'ra uning qiymati nolga teng. Qolgan hollarda ham mulohazalar shu kabi yuritiladi. 1.2.-natija isbot bo'ladi

7-xossa. Agar determinantni *i*-satridagi barcha elementlar *k* ta qo'shiluvchidan iborat bo'lsa, u holda bu determinantni *k ta* determinantlarning yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin bo'lib, bunda ularning i -dan farqli barcha satrlari berilgan deteminantdagidek, i - satri esa birinchi determinantda birinchi qo'shiluvchilardan ikkinchisida - ikkinchilaridan va h.k. tuzilgandir. Xuddi shunday, ustunlar uchun ham o'rinlidir. Xususiy holda bitta satrga boshqa bir satrni (ustunni) qo'shish (yoki undan ayirish) mumkin, ya'ni

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12}+b & a_{13} \\ a_{21} & a_{22}+c & a_{23} \\ a_{31} & a_{32}+d & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} a_{11} & b & a_{13} \\ a_{21} & c & a_{23} \\ a_{31} & d & a_{33} \end{vmatrix}$$

8-xossa. Agar determinantning hech bo'lmaganda bitta satri boshqa satrlari orqali chiziqli bog'langan bo'lsa, bu determinant nolga tengdir. Aksincha, agar *n*- tartibli $(n > 2)$ determinant nolga teng bo'lsa, u holda uning hech bo'lmaganda bitta satri

boshqa satrlari orqali chiziqli ifodalangan bo'ladi. Xuddi shunday ustunlar uchun ham o'rinlidir.
9-xossa. Determinantda biror ustun (satr) ning hamma elemntlarini bitta m songa ko'paytirib, bu ko'paytmalarni boshqa ustun (satr) ning mos elementlariga qo'shsak, determinantning qiymati o'zgarmaydi.

Isboti. (3) determinintning qiymatini Δ deymiz, (3) determinintning bininchi satri elementlarini m ga ko'paytirib, ikkinchi satri elementlariga mos ravishda qo'shaylik (boshqa hollar uchun ham isbot shunga o'xshash bo'ladi). Ko'rilayotgan holda

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} + ma_{11} & a_{22} + m_{12} & a_{23} + ma_{13} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix}.$$

Bu determinant qiymatini Δ_* deb belgilaylik. Biz $\Delta = \Delta_*$ ekanini ko'rsatishimiz lozim. 7-xossaga ko'ra qo'yidagiga egamiz:

$$\Delta_* = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ ma_{11} & ma_{12} & ma_{13} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \Delta + 0 = \Delta.$$

Mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va mustahkamlash *(10 daqiqa).* Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va tasdiqlar o'z ifodasini topgan o'z – o'zini tekshirish savollari va muammoli topshiriqlardan ba'zilari taklif etiladi va talabalarning javoblari eshitiladi, so'ngra, mavzu bo'yicha o'z– o'zini tekshirish savollariga javoblar yozish va muammoli topshiriqlarni bajarish talabalarga uyga vazifa sifatida beriladi (ular ma'ruza matnining oxirida keltirilgan).

O'z-ozini tekshirish savollari

1. n-chi tartibli determinant deb nimaga aytiladi?
2. Permutasiya nima? Inversiya nima?
3. Determinantlarning asosiy xossalarini ayting.

1- ma'ruza bo'yicha muammoli topshiriqlar

1. Quyidagi ko'paytmalardan qaysi birlari mos tartibli determinantlar yoyilmasiga kiradi:

a) $a_{43}\ a_{21}\ a_{35}\ a_{12}\ a_{54}$; b) $a_{61}\ a_{23}\ a_{45}\ a_{36}\ a_{12}\ a_{54}$.

2. i va k ni shunday tanlangki, $a_{62}\ a_{i5}\ a_{33}\ a_{k4}\ a_{46}\ a_{21}$ ko'paytma 6-tartibli determinantga minus ishorasi bilan qatnashsin.

3. $\begin{vmatrix} 5x & 1 & 2 & 3 \\ x & x & 1 & 2 \\ 1 & 2 & x & 3 \\ x & 1 & 2 & 2x \end{vmatrix}$ determinantning x^4 va x^3 ni saqlovchi hadlarni toping.

4. Determinantni yoymasdan quyidagi ayniyatni isbotlang.

$$\begin{vmatrix} o & x & y & z \\ x & o & z & y \\ y & z & o & x \\ z & y & x & o \end{vmatrix} = x^2y^2z^2 \begin{vmatrix} o & 1 & 1 & 1 \\ 1 & o & z^2 & y^2 \\ 1 & z^2 & o & x^2 \\ 1 & y^2 & x^2 & o \end{vmatrix}.$$

Ma'ruzada foydalanilgan va keltirilgan atamalarning GLOSSARIYSI

O'rin almashtirish- n ta turli elementdan tuzilgan o'rin almashtirishlar deb, n ta elementdn tuzilgan va bir-biridan faqat elementlarining tartibi bilan farq qiladigan mumukin bo'lgan barcha gruppalarga aytiladi.

Gruppalashlar- n ta turli elementdan k tadan tuzilgan gruppalash deb, berilgan n ta elementdan olingan k ta elementni o'z ichiga olgan va bir –biridan kamida bitta elementi bilan farq qiladigan barcha mumkin bo'lgan birlashmalarga aytiladi.

2-ma'ruza.
Matrisaning ta'rifi. Matrisalar ustida chiziqli amallar. Matrisalarni ko'paytirish.. Transponirlangan matrisa. Elementar almashtirishlar. Teskari matrisa. Matrisaning rangi.

Reja:

2.1.Matrisaning ta'rifi.
2.2.Matrisalar ustida chiziqli amallar.
2.3.Matrisalarni ko'paytirish.
2.4.Transponirlangan matrisa.
2.5.Elementar almashtirishlar.
2.6.Teskari matrisa.

Tayanch iboralar. matrisa, satr, ustun, matrisalarni qo'shish, ayrish, ko'paytirish, determenant, transponirlangan matrisa, teskari matrisa, algebraik to'ldiruvchi, minor.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsadi: talabalarda matrisaning ta'rifi, matrisalar ustida chiziqli amallar, matrisalarni ko'paytirish, transponirlangan matrisa, elementar almashtirishlar, teskari matrisa, chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning matrisa usuli haqida bilimlarni amaliy masalalarga qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

Rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarning izlanuvchanlik faoliyatini rag'batlantirish, muammoli topshiriqlarga mulohazali javoblar berish ko'nikmalarini hosil qilish hamda ularda natijalarni umumlashtirish mantiqiy va ijodiy qobiliyatini, muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsadi: talabalarni mustaqil fikrlash va faol mustaqil ish faoliyatiga jalb yetish, ularda o'zaro xurmat, hamkorlik fazilatlarini shakllantirish hamda fanga bo'lgan qiziqishni o'stirish.

Darsning jihozlari: Sinf doskasi, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar kursi, tarixiy ma'lumotlar, izohli lug'atlar, atamalar, o'tilgan dars mavzusi bo'yicha savollar va muammoli topshiriqlar majmuasi, testlar, kartochkalar, shaxsiy kompyuter, lazerli proyektor.

Dars o'tish usuli: Avval o'tilgan mavzu qay darajada o'zlashtirilganligini tekshirish, o'z – o'zini tekshirish savollariga javoblar va topshiriqlarni bajarish bo'yicha munozarali jonli muloqotni amalga oshirish, talabalarni yangi mavzu bo'yicha asosiy tushuncha va natijalar haqida fikr – mulohazalarni bayon qilishga o'rgatish, savol – javob usulidan foydalanib, o'zlashtirishga erishish; tayanch iboralarga alohida izoh berish; o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va mustahkamlash.

Darsning borishi: Tashkiliy qism ***(7 daqiqa):*** dars xonasining sanitariya holatini kuzatish, davomat va talabalarning darsga tayyorligini tekshirish. Talabalarni o'tgan ma'ruza boshida bajargan ishlari (o'z – o'zini tekshirish savollariga javoblar va muammoli topshiriqlarni bajarish) natijalarini e'lon qilish.

Yangi dars mavzusining bayoni ***(55 daqiqa):*** (matn keltiriladi, matnda asosiy materialdan tashqari, avvalgi mavzularda o'rganilgan tushunchalar, tasdiqlar hamda mashhur olimlar haqida ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgan glossariy ham keltiriladi va ma'ruzaning elektron variantida giperssilkalar yordamida ularning ekranda ko'rsatilishi ta'minlanadi).
Mavzuning asosiy mazmuni–ma'ruza muloqot uslubi vositasida talabalarga yetkaziladi.

2.1.Matrisaning ta'rifi

1–ta'rif. m ta satr n ta ustundan iborat

$$A = \begin{bmatrix} a_{11}a_{12}\dots a_{1n} \\ a_{21}a_{22}\dots a_{2n} \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}a_{m2}\dots a_{mn} \end{bmatrix} \qquad (1)$$

jadval to'g'ri burchakli $m \times n$ matrisa deyiladi, ba'zan $m \times n$ matrisani $m \times n$ o'lchamli to'g'ri burchakli matrisa deb ham yuritiladi.

Matrisaning tuzuvchi $a_{ij}(i = 1,2,\dots,m, \ \ j = 1,2,\dots,n)$ sonlar uning elementlari deyiladi. Matrisada satrlar soni ustunlar sonidan kichik, unga teng yoki katta, ya'ni $m < n, \ \ m = n, \ \ m > n$ bo'lishi mumkin.

Umumiy holda matrisaning elementlari, odatda, pastiga ikkita indeks qo'yilib, bitta kichik lotin harfi bilan yoziladi. Indekslardan birinchisi satr tartiini (rahami), ikkinchisi esa ustun tartibini bildiradi. Matrisalarni belgilash uchun quyidagi ko'rinishdagi yozuvlar ham ishlatiladi:

$$A = \begin{Vmatrix} a_{11}a_{12}\dots a_{1n} \\ \dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}a_{m2}\dots a_{mn} \end{Vmatrix} \text{ yoki } \quad A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}\dots a_{1n} \\ \dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}a_{m2}\dots a_{mn} \end{pmatrix}$$

(1) matrisa uchun yozishga qulay bo'lgan ushbu $A = (aij)$ belgilashdan ham foydalanamiz. Agar matrisaning satrlari soni ustunlar soniga teng (ya'ni $m = n$) bo'lsa, matrisani kvadrat matrisa deyiladi. Bunday matrisa (n - tartibli) matrisa deb yuritiladi.

Ushbu

$$D = \begin{bmatrix} d_{n} \ 0\dots \ \ 0 \\ 0 \ \ d_{22}\dots 0 \\ \dots\dots\dots\dots \\ 0 \ \ 0\dots \ \ d_{nn} \end{bmatrix} \qquad (2)$$

ko'rinishdagi kvadrat matrisa diagonal matrisa deyiladi va qichqacha quyidagicha yoziladi.

$$D = \{d_{11}d_{22},\dots,d_{nn}\} \text{ yoki } D = \{d_{ii}\}$$

Agar (2) diagonal matrisa $d_{ii} = 1(i = 1,2,\dots,n)$ bo'lsa, bu matrisa birlik matrisa deyiladi va E harfi orqali belgilanadi, ya'ni

$$E = \begin{bmatrix} 1 \ \ 0\dots 0 \\ 0 \ \ 1\dots 0 \\ \dots\dots\dots \\ 0 \ \ 0\dots 1 \end{bmatrix}$$

Agar matrisaning barcha elementlari nollardan iborat bo'lsa, u nol matrisa deyiladi va E orqali belgilanadi, ya'ni

$$E^0 = \begin{bmatrix} 0 \ \ 0\dots 0 \\ 0 \ \ 0\dots 0 \\ \dots\dots\dots \\ 0 \ \ 0\dots 0 \end{bmatrix}$$

Agar m ta satrli va n ta ustunli ikkita A va B matrisadan birining hamma elementlari ikkinchisining hamma mos elementlariga teng (ya'ni $a_{ij} = b_{ij}$) bo'lsa, bu matrisalar teng deb hisoblanadi va $A = B$ ko'rinishda yoziladi. Agar bir matrisaning kamida bitta elementi ikkinchisining mos elementiga teng bo'lmasa, bu matrisalar ham teng emas deyiladi va $A \neq B$ ko'rinishda yoziladi. Matrisalar uchun kichik va katta tushunchalari ma'noga ega emas.

2.2.Matrisalar ustida chiziqli amallar

2–ta'rif. Agar bir xil tartibli ikkita $A = (a_{ij})$ va $B = (b_{ij})$ $i = 1,2,...m, j = 1,2,...,n$ matrisalar berilgan bo'lsa, A va B matrisalarning *yig'indisi* deb, shunday $C = (c_{ij})$ matrisaga aytiladiki, bu matrisaning elementlari A va B matrisalarning mos elementlarining yig'indisiga $c_{ij} = a_{ij} + b_{ij}, \forall i, j,\ i = 1,2,...,m, j = 1,2,...,n$ teng bo'ladi va $C = A + B$ deb yoziladi.

Ta'rif bo'yicha

$$C = A + B = \begin{pmatrix} a_{11} + b_{11} \quad a_{12} + b_{12} \ldots a_{1n} + b_{1n} \\ a_{21} + b_{21} \quad a_{22} + b_{22} \ldots a_{2n} + b_{2n} \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{m1} + b_{m1} \quad a_{m2} + b_{m2} \ldots a_{mn} + b_{mn} \end{pmatrix}$$

Matrisalar yig'indichi tarifidan uning qo'yidagi xossalari kelib chiqadi:

1^0. $A + (B + C) = (A + B) + C$.

2^0. $A + B = B + A$.

3^0. $A + E^0 = A$ (bunda $E^0 = (0), A, B, C -$ berilgan bir xil tartibli kvadrat matrisalar).

Matrisalarning ayirmasi ularning yig'indisiga o'xshash ta'riflanadi va

$$C = A - B = \begin{pmatrix} a_{11} - b_{11} \quad a_{12} - b_{12} \ldots a_{1n} - b_{1n} \\ a_{21} - b_{21} \quad a_{22} - b_{22} \ldots a_{2n} - b_{2n} \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{m1} - b_{m1} \quad a_{m2} - b_{m2} \ldots a_{mn} - b_{mn} \end{pmatrix}$$

ko'rinishda yoziladi. Agar matrisalarning tartibi bir xil bo'lmasa, unday matrisalarda qo'shish va ayrish amallari kiritilmagan.

3–ta'rif. $A = (a_{ij})$ matrisani $\alpha \neq 0$ songa ko'paytirish deb, matrisaning hamma elementlarini shu α songa ko'paytirishdan hosil bo'lgan matrisaga aytiladi va αA yoki αA ko'rinishda yoziladi.

Ta'rifga ko'ra

$$A\alpha = \alpha A = \begin{pmatrix} \alpha a_{11} \alpha a_{12} \ldots \alpha a_{1n} \\ \alpha a_{21} \alpha a_{22} \ldots \alpha a_{2n} \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ \alpha a_{m1} \alpha a_{m2} \ldots \alpha a_{mn} \end{pmatrix}$$

Matrisani songa ko'paytirish ta'rifidan qo'yidagi xossalar kelib chiqadi:

1^0. $1\cdot A = A\cdot 1 = A$.

2^0. $A\cdot 0 = 0\cdot A = E^0$.

3^0. $\alpha(\beta)A = \beta(\alpha A) = (\alpha\beta)A$.

4^0. $(\alpha+\beta)A = \alpha A + \beta A$.

5^0. $\alpha(A+B) = \alpha A + \beta B$.

Bu yerda A va V – bir xil tartibli kvadrat matrisalar, α,β - haqiqiy sonlar.

Agar A matrisa n tartibli kvadrat matrisa bo'lsa, u holda $\det(\alpha A) = \alpha^n \det A$ bo'ladi.

Misollar:

1) $A=\begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 4 & 5 \end{pmatrix}$ va $B=\begin{pmatrix} 1 & -2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix}$ berilgan bo'lsa, u holda

$A+B=\begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 4 & 5 \end{pmatrix}+\begin{pmatrix} 1 & -2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} 1+2 & 3-2 \\ 4+3 & 5+4 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} 3 & 1 \\ 7 & 9 \end{pmatrix}$ bo'ladi.

2) $A=\begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 4 & 5 \end{pmatrix}$ va $\alpha=2$ berilgan bo'lsa, u holda

$A\alpha=\alpha A=2\begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 4 & 5 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} 2\cdot 2 & 3\cdot 2 \\ 4\cdot 2 & 5\cdot 2 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} 4 & 6 \\ 8 & 10 \end{pmatrix}$.

2.3.Matrisalarni ko'paytirish

Tartiblari mos ravishda $m\times n$ va $p\times q$ bo'lgan.

$$A=\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12}\dots a_{1n} \\ a_{21} & a_{22}\dots a_{2n} \\ \dots\dots\dots\dots\dots & \\ a_{m1} & a_{m2}\dots a_{mn} \end{pmatrix} \text{ va } B=\begin{pmatrix} b_{11} & b_{12}\dots b_{1q} \\ b_{21} & b_{22}\dots b_{2q} \\ \dots\dots\dots\dots\dots & \\ b_{p1} & b_{p2}\dots b_{pq} \end{pmatrix}$$

to’g’ri burchakli matrisalar berilgan bo’lsin.

Agar A matrisaning ustunlari soni n berilgan B matrisaning satrlari soni r ga teng bo’lsa, u holda bu matrisalarni ko’paytirish amali ma’noga ega bo’ladi.

4–ta’rif. Berilgan tartibda (A -birinchi), (B -ikkinchi) olingan A va B matrisalarning ko’paytmasi AB deb, shunday $m\times n$ tartibli

$$C = A\cdot B = \begin{pmatrix} c_{11} & c_{12}\dots c_{1n} \\ c_{21} & c_{22}\dots c_{2n} \\ \dots\dots & \dots\dots \\ c_{m1} & c_{m2}\dots c_{mn} \end{pmatrix}$$

matrisaga aytiladi, C matrisaning elementlari

$$c_{ij} = a_{i1}b_{1j} + a_{i2}b_{2j} + \dots + c_{in}b_{nj} = \sum_{k=1}^{n} a_{ik}b_{kj}$$

$$i = 1,2,\dots,m \quad j = 1,2,\dots,n$$

formulalar bilan aniqlanadi.

Agar A va B lar n tartibli kvadrat matrisalar bo’lsa, ularning $C = AB$ ko’paytmasi ham n tartibli kvadrat matrisa bo’ladi.

Qoida. Ikkita matrisani ko’paytirishdan hosil bo’lgan matrisaning i - satri va j - ustunidan turuvchi c_{ij} elementni hisoblash uchun birinchi matrisaning i - satrida turuvchi elementlarni ikinchi matrisaning j - ustunida turuvchi elementlarga mos ravishda ko’paytirib qo’shish kerak.

Misol. Quyidagicha

$$A = \begin{bmatrix} 3 & 2 & 8 & 1 \\ 1 & -4 & 0 & 3 \end{bmatrix} \text{ va } B = \begin{bmatrix} 2 & -1 \\ 1 & -3 \\ 0 & 1 \\ 3 & 1 \end{bmatrix}$$

to’g’ri burchakli matrisalar ko’paytmasini topamiz.

$$C = AB = \begin{bmatrix} 3\cdot 2 + \ 2\cdot 1 + \ 8\cdot 0 + 1\cdot 3 & 3\cdot(-1) + 2\cdot(-3) + 8\cdot 1 + 1\cdot 1 \\ 1\cdot 2 + (-4)\cdot(-3) + 0\cdot 0 + 3\cdot 3 & 1\cdot(-1) + (-4)\cdot(-3) + 0\cdot 1 + 3\cdot 2 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 11 & 0 \\ 7 & 14 \end{bmatrix}$$

Matrisalarning ko’paytmasi quyidagi xossalarga ega:

1. $A(BC) = (AB)\cdot C$. 2. $\alpha(AB) = (\alpha A)\cdot B = A(\alpha B),\quad \alpha \neq 0$.

3. $(A+B)C = AC + BC$. 4. $C(A+B) = CA + CB$.

5. $A^m = AA..A$. 6. $AE = EA = A$. 7. $OA = AO = E^0$.

Bunda A, B, C matrisalar, α -haqiqiy son.

Ikki matrisaning ko'paytmasi uchun kommutativlik (o'rin almashtirish) xossasi umuman aytganda, o'rinli emas, ya'ni

$$AB \neq BA$$

Misol. Agar $A = \begin{pmatrix} 5 & 1 \\ 2 & 4 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 2 & 4 \\ 1 & -2 \end{pmatrix}$ bo'lsa, u holda

$$AB = \begin{pmatrix} 11 & 18 \\ 8 & 0 \end{pmatrix},\quad BA = \begin{pmatrix} 18 & 18 \\ 1 & -6 \end{pmatrix}$$

bo'ladi. Shunday qilib,

$$AB \neq BA.$$

2.4. Transponirlangan matrisa. Ushbu

$$A = \begin{bmatrix} a_{11} & a_{12} \dots a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \dots a_{2n} \\ \dots\dots & \dots\dots \\ a_{m1} & a_{m2} \dots a_{mn} \end{bmatrix}$$

matrisa berilgan bo'lsin.

5–ta'rif. A matrisadagi hamma strlarni qo'yida ko'rsatilgancha ustunlar qilib, (va aksincha, ustunlar satrlar qilib) yozsak, ushbu

$$A^T = \begin{bmatrix} a_{11} & a_{21} \dots a_{m1} \\ a_{12} & a_{22} \dots a_{m2} \\ \dots\dots & \dots\dots \\ a_{1n} & a_{2n} \dots a_{mn} \end{bmatrix}$$

ko'rinishdagi yangi matrisaga, transponirlangan matrisa deyiladi.

Masalan, ushbu

$$A=\begin{bmatrix}1 & 2 & -7\\ 4 & 0 & 9\end{bmatrix}$$

matrisani transponirlashdan

$$A^T=\begin{bmatrix}1 & 4\\ 2 & 0\\ -7 & 9\end{bmatrix}$$

hosil bo'ladi.

Transponirlash amali qo'yidagi xossalarga ega:

1^0. $\left(A^T\right)^T=A$

2^0. $(A+B)^T=A^T+B^T$

3^0. $(\alpha A)^T=\alpha A^T$

bunda α - haqiqiy son, A va B matrisalar $m\times n$ o'lchovli matrisalardir.

Agar A kvadrat matrisa uchun $A=A^T$ ya'ni $\forall ij$ lar uchun $aij=aji$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda A *simmetrik matrisa* deyiladi. Masalan, ushbu

$$A=\begin{pmatrix}1 & 2 & -3\\ 2 & 4 & 5\\ -3 & 5 & 7\end{pmatrix}$$

simmetrik matrisa bo'ladi.

Agar $A=-A^T$ $\forall ij$ lar uchun $aij=-aji$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda A matrisa antisimmetrik (nosimmetrik) matrisa deyiladi.

Masalan, ushbu

$$A=\begin{pmatrix}0 & -2 & -3\\ 2 & 0 & -8\\ 3 & 8 & 0\end{pmatrix}$$

antisimmmetrik matrisa bo'ladi.

Eslatma. Har qanda A matrisani simmetrik va antisimmetrik matrisa ko'rinishda tasvirlash mumkin:

$$aij = \frac{1}{2}(aij + aji) + \frac{1}{2}(aij - aji)$$

$i = 1,2,\ldots m > j = 1,2,\ldots n$.

2.5. Elementar almashtirishlar

6–ta'rif. Matrisani elementar almashtirishlar deb,

1. Transponirlashni;
2. Istalgan ikki satr (ikki ustun) ni o'zaro almashtirishni;
3. Istalgan satr (ustun) ning elementlarini noldan farqli har qanday m songa ko'paytirishni;
4. Bir satr (ustun) ning elementlarini istalgan m songa ($m = 0$ bo'lishi ham mumkin) ko'paytirib, boshqa satr (ustun) ning mos elementlariga qo'shishni aytamiz.

Agar B matrisa A matrisaning satrlari (yoki ustunlari) ni bir necha

marta ketma-ket elementar almashtirishlar yordamida olingan bo'lsa, u holda A matrisa B matrisaga ekvivalent deyiladi va $A \approx B$ ko'rinishda yoziladi.

Masalan, ushbu

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix} \quad B = \begin{pmatrix} 3 & 4 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}$$

matrisalar ekvivalentdir. Haqiqatan ham, 2 satrni 1 satrga qo'shamiz,

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix} \approx \begin{pmatrix} 4 & 6 \\ 3 & 4 \end{pmatrix} \approx$$

satra 2 satrni –1 ga ko'paytirib, 1 satrni 2 satrga qo'shamiz;

$$\approx \begin{pmatrix} 4 & 6 \\ 3 & 4 \end{pmatrix} \approx \begin{pmatrix} 4 & 6 \\ 1 & 2 \end{pmatrix} \approx \begin{pmatrix} 3 & 4 \\ 1 & 2 \end{pmatrix} = B$$

1 satrni –1 ga ko'paytirib 2 satrni qo'shamiz.

2.6. Teskari matrisa haqida tushuncha.

7–ta'rif. Agar n - tartibli A va B kvadrat matrisalar orasida $AB = BA = E$ (E – birlik matrisa) munosabat o'rinli bo'lsa, u holda B matrisani A matrisaga (va aksincha) *teskari matrisa* deyiladi.

A matrisa uchun teskari matrisasini A^{-1} orqali belgilanadi. U holda o'zaro teskari matrisalar uchun ushbu munosabat o'rinli:

$$AA^{-1} = A^{-1}A = E$$

Berilgan kvadrat matrisaga teskari matrisa har doim ham mavjud bo'lavermaydi. Bunday matrisa mavjud bo'lganda uni topish ko'p masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

8–ta'rif. Agar A kvadrat matrisaning determenanti nolga teng bo'lsa, u holda A matrisani maxsus, aks holda, maxsusmas matrisa deyiladi.

1-teorema. Ixtiyoriy maxsusmas matrisa uchun unga teskari matrisa mavjud.

Isboti. Faraz qilaylik, $A = [aij]$ matrisa n tartibli kvadrat matrisa bo'lib, $D = \det A \neq 0$ bo'lsin. A matrisaning $aij\,(ji = q, 2, \ldots, n)$ elementlariga mos keluvchi algebraik to'ldiruvchilardan tuzilgan ushbu matrisani qaraymiz:

$$\tilde{A} = \begin{bmatrix} A_{11} & A_{12} \ldots A_{1n} \\ A_{21} & A_{22} \ldots A_{2n} \\ \ldots\ldots\ldots & \ldots\ldots\ldots \\ A_{n1} & A_{n2} \ldots A_{nn} \end{bmatrix}$$

Agar bu matrisani transponirlasak,

$$\tilde{A}^T = \begin{bmatrix} A_{11} & A_{12} \ldots A_{1n} \\ A_{21} & A_{22} \ldots A_{2n} \\ \ldots\ldots\ldots & \ldots\ldots\ldots \\ A_{n1} & A_{n2} \ldots A_{nn} \end{bmatrix}$$

matrisaga ega bo'lamiz. 1 matrisani odatda $\tilde{A}$ matrisaga qo'shma matrisa deyiladi. Qo'shma matrisaning barcha elementlarini A matrisaning determinantiga bo'lib, qo'yidagi matrisani hosil qilamiz:

$$B = \begin{vmatrix} \frac{A_{11}}{\det A} & \frac{A_{21}}{\det A} \ldots \frac{A_{n1}}{\det A} \\ \frac{A_{12}}{\det A} & \frac{A_{22}}{\det A} \ldots \frac{A_{n2}}{\det A} \\ \ldots\ldots\ldots & \ldots\ldots\ldots \\ \frac{A_{1n}}{\det A} & \frac{A_{2n}}{\det A} \ldots \frac{A_{nn}}{\det A} \end{vmatrix}$$

Hosil bo'lgan bu B matrisani A matrisaga teskari ekanini, ya'ni $B = A^{-1}$ ekanligini isbot qilamiz. Buning uchun determinantning xossalariga asoslanib, A va B matrisalarning ko'paytmasini hisoblaymiz:

$$AB = \begin{bmatrix} a_{11} & a_{12} \ldots a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \ldots a_{2n} \\ \ldots\ldots & \ldots\ldots \\ a_{n1} & a_{n2} \ldots a_{nn} \end{bmatrix} \cdot \begin{vmatrix} \frac{A_{11}}{\Delta} & \frac{A_{21}}{\Delta} \ldots \frac{A_{n1}}{\Delta} \\ \frac{A_{12}}{\Delta} & \frac{A_{22}}{\Delta} \ldots \frac{A_{n2}}{\Delta} \\ \ldots\ldots & \ldots\ldots \\ \frac{A_{1n}}{\Delta} & \frac{A_{2n}}{\Delta} \ldots \frac{A_{nn}}{\Delta} \end{vmatrix} = \begin{bmatrix} 1 & 0 \ldots 0 \\ 0 & 1 \ldots 0 \\ \ldots & \ldots \\ 0 & 0 \ldots 0 \end{bmatrix}$$

Demak, $B = A^{-1}$. Bundan $\det A^{-1} = \frac{1}{D} A$ ekani kelib chiqadi.

Eslatmalar.

1. Berilgan maxsusmas A matrisa uchun uning teskari A^{-1} matrisasi yagonadir.
2. Maxsus kvadrat matrisa uchun teskari matrisa mavjud emas.

Endi ushbu

$$A = \begin{bmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 5 \\ 3 & 5 & 6 \end{bmatrix}$$

matrisa uchun teskari matrisani topaylik. Buning uchun avval $\det A$ determinantni tuzamiz va uni hisoblaymiz.

$$D = \det A = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 5 \\ 3 & 5 & 5 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 0 & 0 & -1 \\ 0 & -1 & -3 \end{vmatrix} = -1 \neq 0$$

Demak, A maxsusmas matrisa.

Endi qo'shma matrisani tezamiz. Buning uchun A matrisaning satr elementlarining algebraik to'ldiruvchilarini topamiz va ularni mos ravishda ustunlarga joylashtiramiz:

$A_{11} = 4 \cdot 6 - 5 \cdot 5 = -1,$ $\qquad A_{12} = -(2 \cdot 6 - 3 \cdot 5) = 3,$

$A_{21} = -(2 \cdot 6 - 5 \cdot 3) = 3,$ $\qquad A_{22} = 1 \cdot 6 - 3 \cdot 3) = -3,$

$A_{31} = 2 \cdot 5 - 4 \cdot 3 = -2,$ $\qquad A_{32} = -(1 \cdot 5 - 3 \cdot 2) = 1,$

$$A_{13} = 2 \cdot 5 - 3 \cdot 4 = -2$$
$$A_{23} = -(5 \cdot 1 - 3 \cdot 2) = 1$$
$$A_{33} = 1 \cdot 4 - 2 \cdot 2 = 0$$

Shunday qilib,

$$\tilde{A}^T = \begin{bmatrix} -1 & 3 & -2 \\ 3 & -3 & 1 \\ -2 & 1 & 0 \end{bmatrix}$$

Nihoyat, A ning barcha elementlarini $\Delta = -1$ Δ=-1 ga bo'lamiz, u holda teskari matrisa ushbu ko'rinishga ega bo'ladi:

$$A^{-1} = \begin{bmatrix} 1 & -3 & 2 \\ -3 & 3 & -1 \\ 2 & -1 & 0 \end{bmatrix}$$

Tekshirish ko'rsatadiki, $A \cdot A^{-1} = E$. Haqiqatan,

$$AA^{-1} = \begin{bmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 5 \\ 3 & 5 & 6 \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} 1 & -3 & 2 \\ -3 & 3 & -1 \\ 2 & -1 & 9 \end{bmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 1 \cdot 1 + \quad 2(-3) + 3 \cdot 2 & 1(-3) + 2 \cdot 3 + 3(-1) & 1 \cdot 2 + 2(-1) + 3 \cdot 0 \\ 2 \cdot 1 + 4(-3) + 5 \cdot 2 & 2(-3) + 4 \cdot 3 + 5(-1) & 2 \cdot 2 + 4(-1) + 5 \cdot 0 \\ 3 \cdot 1 + 5(-3) + 6 \cdot 2 & 3(-3) + 5 \cdot 3 + 6(-1) & 3 \cdot 2 + 5(-1) + 6 \cdot 0 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} = E$$

Shu yo'l bilan $A^{-1}A = E$ ekanini isbotlash mumkin.

Teskari matrisa quyidagi xossalarga ega:

1) Teskari matrisaning determinanti berilgan matrisa determinantining teskari qiymatiga teng, ya'ni

$$\det(A^{-1}) = \frac{1}{\det A}$$

2) Kvadrat matrisalar ko'paytmasi AV uchun teskari ikkinchi V matrisaga teskari matrisaning birinchi A matrisaga teskari matrisaga ko'paytmasiga teng, ya'ni

$$(AB)^{-1} = B^{-1}A^{-1}$$

3) Transponirlangan teskari matrisa berilgan transponirlangan matrisaning teskarisiga teng, ya'ni

$$(A^{-1})^T = (A^T)^{-1}$$

4) Teskari matrisaning teskarisi berilgan matrisaning o'ziga teng, ya'ni

$$(A^{-1})^{-1} = A.$$

Mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va mustahkamlash *(10 daqiqa).* Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va tasdiqlar o'z ifodasini topgan o'z – o'zini tekshirish savollari va muammoli topshiriqlardan ba'zilari taklif etiladi va talabalarning javoblari eshitiladi, so'ngra, mavzu bo'yicha o'z– o'zini tekshirish savollariga javoblar yozish va muammoli topshiriqlarni bajarish talabalarga uyga vazifa sifatida beriladi (ular ma'ruza matnining oxirida keltirilgan).

O'z-o'zini tekshirish savollari

1. Matrisa deb nimaga aytiladi?
2. Matrisa bilan determinant o'rtasidagi farq qanday?
3. Matrisalar ustida qanday chiziqli amallar bor?
4. Matrisalar qanday ko'paytiriladi?
5. Elementar almashtirishlar qanday bajariladi?
6. Transponirlangan matrisa deb nimaga aytiladi?
7. Teskari matrisa qanday topiladi?
8. Maxsus matrisa deb nimaga aytiladi?
9. Maxsusmas matrisa deb nimaga aytiladi?
10. Teskari matrisa qanday xossalarga ega?
11. Simmetrik va antisimmetrik matrisalarning ta'riflarini ayting.

3- ma'ruza bo'yicha muammoli topshiriqlar

1. Qanday shartlarda quyidagi ayniyatlar o'rinli bo'ladi:

a) $A+B=B+A$; b) $A+(B+C)=(A+B)+C$;

c) $\alpha(\beta A)=(\alpha\beta)A$; d) $\alpha(A+B)=\alpha A+\alpha B$;

e) $(\alpha+\beta)A=\alpha A+\beta A$.

2. $A=\begin{pmatrix} a & b \\ c & d \end{pmatrix}$ matritsa $x^2-(a+d)x+ad-bc=0$ tenglamani qanoatlantirishini isbotlang.

Ma'ruzada foydalanilgan va keltirilgan atamalarning GLOSSARIYSI

Matrisalarning yig'indisi- Agar bir xil tartibli ikkita $A = (a_{ij})$ va $B = (b_{ij})$ $i = 1,2,...m, j = 1,2,...,n$ matrisalar berilgan bo'lsa, A va B matrisalarning *yig'indisi* deb, shunday $C = (c_{ij})$ matrisaga aytiladiki, bu matrisaning elementlari A va B matrisalarning mos elementlarining yig'indisiga $c_{ij} = a_{ij} + b_{ij}, \forall i, j,\ i = 1,2,...,m, j = 1,2,...,n$ teng bo'ladi va $C = A + B$ deb yoziladi.

Matrisani $\alpha \neq 0$ songa ko'paytirish- $A = (a_{ij})$ matrisani $\alpha \neq 0$ songa ko'paytirish deb, matrisaning hamma elementlarini shu α songa ko'paytirishdan hosil bo'lgan matrisaga aytiladi va αA yoki αA ko'rinishda yoziladi.

3- ma'ruza uchun Klaster

$$A^T = \begin{bmatrix} a_{11} & a_{21} \dots a_{m1} \\ a_{12} & a_{22} \dots a_{m2} \\ \dots\dots\dots\dots & \dots\dots\dots \\ a_{1n} & a_{2n} \dots a_{mn} \end{bmatrix}$$

$$C=A+B=\begin{pmatrix} a_{11}+b_{11} & a_{12}+b_{12} \cdot a_{1n}+b_{1n} \\ a_{21}+b_{21} & a_{22}+b_{22} \cdot a_{2n}+b_{2n} \\ \dots\dots\dots & \dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}+b_{m1} & a_{m2}+b_{m2} \cdot\cdot a_{mn}+b_{mn} \end{pmatrix}$$

Ikki matrisaning ko'paytmasi uchun kommutativlik (o'rin almashtirish) xossasi umuman aytganda, o'rinli emas, ya'ni

$$AB \neq BA$$

MATRISA

Agar A kvadrat matrisaning determenanti nolga teng bo'lsa, u holda A matrisani maxsus, aks holda, maxsusmas matrisa deyiladi.

Agar n - tartibli A va B kvadrat matrisalar orasida $AB = BA = E$ (E – birlik matrisa) munosabat o'rinli bo'lsa, u holda B matrisani A matrisaga (va aksincha) *teskari matrisa* deyiladi.

Agar A matrisaning ustunlari soni n berilgan V matrisaning satrlari soni r ga teng bo'lsa, u holda bu matrisalarni ko'paytirish amali ma'noga ega bo'ladi.